

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALARNI BERUVCHI PhD. 03/27.02.2020.FIL.91.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

MAMATOVA SADBARA QO'LDOSHEVNA

O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA NUH ALAYHISSALOM OBRAZI

10.00.02 – O'zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Mamatova Sadbara Qo‘ldoshevna

О‘zbek mumtoz adabiyotida Nuh alayhissalom obrazi..... 3

Маматова Садбара Кулдошевна

Образ Нух алейхиссалама в узбекской классической литературе25

Mamatova Sadbara Kuldoshevna

The image of Nuh alayhissalam in Uzbek classical literature49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALARNI BERUVCHI PhD. 03/27.02.2020.FIL.91.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

MAMATOVA SADBARA QO'LDOSHEVNA

O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA NUH ALAYHISSALOM OBRAZI

10.00.02 – O'zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fil4978 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Guliston davlat universiteti veb-sahifasining (www.guldu.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rahmonov Nasimxon Asqarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

To'xliyev Boqijon
filologiya fanlari doktori, professor

Hamroqulova Xurshida Quvvatovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "27" 03 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 120100, Guliston shahri, 4-mavze. Tel.: (99 867) 225-40-42; faks: (99 867) 225-02-75, E-mail: glsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (№56/25 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 120100, Guliston shahri, 4-mavze. Tel.: (+99867) 225-40-42).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "10" 03 da tarqatildi.
(2025-yil "10" 03 dagi 28 raqamli reestr bayonnomasi).



M.R. Mamatqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Axrorov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

F.G. Sharipov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon adabiyotshunosligida nodir qo‘lyozmalar asosida o‘sha davr adabiy jarayonini va madaniy-tarixiy taraqqiyotni tadqiq etish muhim hisoblanadi. Shu kabi nodir manbalarning bir turi agiografik asarlar bo‘lib, ular o‘zbek mumtoz adabiyotining mazmunan boyishida alohida o‘rin tutadi. Adabiyotshunoslikda agiografik asarlarni tadqiq etish muhim natijalarga olib kelgan. Mazkur asarlar xalqimiz poetik tafakkuridagi evrilishlar hamda o‘ziga xosliklarni ko‘rsatuvchi manbalar tizimi bo‘lishi bilan birga, insoniyatning ma‘naviy-ruhiy kamolotga erishuvida muhim rol o‘ynagan adabiy yodgorliklardan biri sifatida ham e‘tiborni tortadi.

Dunyo adabiyotshunosligida agiografik asarlar, jumladan, “Qisasi Rabg‘uziy” asari va uning muallifi Nosiriddin Burhonuddin Rabg‘uziy adabiy merosini tadqiq etish asnosida Sharq xalqlari adabiyotida Nuh (a.s.) obrazini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda ijodiy dahosi benazir bo‘lgan qadim ajdodlarimizning asrlar davomida yaratgan durdona va bebaho adabiy yodgorliklari orasida alohida o‘rin tutadigan “Qisasi Rabg‘uziy” asari insonlarning ezgulikni ulug‘lab yashashlari va iymon-e‘tiqodi ifodasi bilan bog‘liq eng yaxshi an‘analarni aks ettirgan muhim manba ekanligi o‘z isbotini topgan. Bunga asarning yer yuzining paydo bo‘lishidan to so‘nggi payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) hayotiga doir voqealarni aks ettirganligi hamda mohiyatan kishilarni to‘g‘rilikka, komillikka, axloqiy poklikka chaqirishga xizmat qilish asos bo‘lgan.

Mamlakatimizda o‘zbek mumtoz adabiyotini o‘rganish va targ‘ib etish, xususan, “Qisasi Rabg‘uziy” kabi agiografik asarlarni tadqiq etish, ushbu adabiy yodgorliklarning muhim ahamiyatga molik ekanligini targ‘ib etish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “O‘zbek milliy mumtoz va zamonaviy adabiyoti namunalarini jahon tillariga sifatli o‘girish...”¹, “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish, bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega”² ekanligi ta‘kidlanmoqda, bu boradagi muhim vazifalar belgilab berilmoqda. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari bo‘lgan agiografik asarlardagi Nuh (a.s.) obrazining tarixiy-genetik asoslarini, ushbu obrazga xos xususiyatlarni, obrazning yaxlit kompozitsion struktura tarkibidagi vazifasini va shu kabi masalalarni o‘rganish, yanada chuqurroq tahlil va tadqiq etish zarurati paydo bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

² Mirziyoyev Sh. Adabiyot, san‘at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning „O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari“ mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va-2018.07.08>.

tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995 son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi, 2023-yil 25-yanvardagi PQ-20-son “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” yoki “Qissas ul anbiyo” asari payg‘ambarlar tarixi yuzasidan yaratilgan adabiy manba bo‘lganligi uchun mazkur asarga qiziqish yuzasidan turli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, rus olimi N.I.Ilminskiy³ tomonidan asar to‘liq holda nashr qilingan. Ushbu asar yuzasidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Qisasi Rabg‘uziy”ni K.Gronbekning faksimile nusxasi asosida tadqiq etgan Aysu Ata⁴ asarning yozilishi usullari, mundariyasi, she‘rlarning tuzilishi, o‘rganilish tarixi va fonetikasi haqida so‘z yuritgan. Mazkur asarning turk tilidagi tabdilini K.Gronbek faksimile nusxasi bilan birga chop ettirgan. Shuningdek, olim o‘zining izlanishlari davomida Rabg‘uziy hayoti va ijodining o‘rganilishi haqida ham keng to‘xtalgan bo‘lib, bunda J.Shinkevich, A.I.Abrajevin, M.B.Dame, E.Blochettlarning ilmiy-nazariy izlanishlariga tayangan⁵.

“Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi Nuh payg‘ambar qissasini tadqiq qilish bo‘yicha qator xorijlik olimlar, jumladan, P.M.Melioranskiy⁶, S.Y.Malov⁷, V.L.Kotvich⁸,

³ Ильминский Н.И. –Казань: Типолитография бр. Каменных, 1859. – 555 с.; Халиуллина А.Р. Графофонетические и морфологические особенности тюркоязычного памятника XIV в „Кисас ал анбия“ Насриддина Рабгузи. – Казан: Казанский государственный университет, 2002. –239 с.

⁴ Aysu Ata. Nasriddin bin Burhaneddin Rabguzi. Kāsasu'l-Enbiya. –Ankara, 1997. –S. 21–22.

⁵ Blochet E. Catalogue des Manuscrits Turcs de la Bibliothèque Nationale. Paris: Bibliothèque nationale, (1932). t. I.–314 p.; (1933). t. II. –314 p.

⁶ Мелиоранский П.М. Араб-филолог о турецком языке. –СПб., 1900. –85 с.

⁷ Малов С.Е. Мусульманские сказания о пророках по Рабгузи // Записки Коллегии Востоковедов. Т.1.V, (в честь ак. Крачковского). –Л., 1930. –С. 521–530.

⁸ Kotvich V. Iz ehpisto'yarnogo naslediya [From the epistolary heritage]. –Ulaanbaatar: Bembi san Publ., 2011. –414 p. (In Russ.)

A.N.Kononov⁹ va boshqa olimlar¹⁰, shuningdek, mamlakatimiz olimlaridan E.Fozilov¹¹, H.Dadaboyev¹², A.Yunusov, N.Asilova, N.Mallayev¹³, I.Ostonaqulov¹⁴, B.B.Abdushukurov¹⁵, Z.Y.Shukurova, M.Qurbonniyozov¹⁶lar ham o‘z izlanishlarini olib borishgan.

Nosiriddin Burhoniddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari mustaqilligimiz sharofati va bir guruh olimlarimizning sa’y-harakati bilan o‘zbek xalqining ma’naviy mulkiga aylandi. Asarning eng qadimiy qo‘lyozmasi XV asrda ko‘chirilgan bo‘lib, hozirda u Britaniya muzeyida saqlanadi. Asar matnshunos K.Gronbek tomonidan 1948-yili Kopengagenda nashr qilingan. “Qisasi Rabg‘uziy” kitobini o‘zbek tilida nashrga tayyorlashda filologiya fanlari nomzodi Abdullo Yunusov va filologiya fanlari doktori Hamidulla Dadaboyevlar shu nusxani asos qilib olganlar. “Yozuvchi” nashriyotida 1990-yil chop etilgan ushbu kitobga filologiya fanlari doktori, akademik Ergash Fozilov so‘zboshi yozgan. Oyatlar, hadislar, arabcha she’rlarni hozirgi o‘zbek tiliga filologiya fanlari nomzodi Yusufxon Shokirov tarjima qilgan.

Shuningdek, Ibrohim Haqqulov “Zanjirband sher qoshida” nomli kitobida “Qisasi Rabg‘uziy”dagi janrlar, ya’ni rivoyat va hikoyatlarni yangicha qarashlar asosida o‘rgangan¹⁷. U.Mirzakarimova “Qisasi Rabg‘uziy”ning morfologik xususiyatlarini o‘rganib nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan¹⁸. Tadqiqotchi B.Sarimsoqov “O‘zbek adabiyotida sajj” monografiyasida Rabg‘uziy asaridagi sajj san’ati, asar tilining uslubi masalasi va boshqa masalalar bo‘yicha kerakli fikrlarni o‘qiganimizda asar haqida muhim bo‘lgan xulosalar chiqarishda yordam beradi¹⁹. T.G‘ofurjonova ham mazkur asarning ilmiy-nazariy jihatlariga e’tibor berganligiga

⁹ Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников IX–XII вв. –Л.: Наука, 1980. –255 с.; Мухамедова З.Б. Исследование по истории туркменского языка XI–XIV вв. –М.: Наука, 1969. –С. 3; Джолдасбеков М. Древнетюркские литературные памятники и их отношение к казахской литературе: Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. –Алма-Ата, 1969. –С. 8; Краубаева А. Идеино-художественные особенности «Кисас Рабгузи» и «Мухаббатнаме»: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Алма-Ата, 1974. –27 с.; Çağatay S. Türk Lehçeleri Örnekleri [I]. –Ankara, 1950. –S. 141–151; Köprülü F. Rabgûzi ve Kısasü’l-Enbiyâ’sı. Türk Edebiyatı Tarihi. –İstanbul, 1980. –S. 286–289.

¹⁰ Мухамедова З.Б. Исследование по истории туркменского языка XI–XIV вв. –М.: Наука, 1969. –С. 3; Джолдасбеков М. Древнетюркские литературные памятники и их отношение к казахской литературе: Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. –Алма-Ата, 1969. –С. 8; Краубаева А. Идеино-художественные особенности «Кисас Рабгузи» и «Мухаббатнаме»: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Алма-Ата, 1974. –27 с.; Çağatay S. Türk Lehçeleri Örnekleri [I]. –Ankara, 1950. –S. 141–151; Köprülü F. Rabgûzi ve Kısasü’l-Enbiyâ’sı. Türk Edebiyatı Tarihi. –İstanbul, 1980. –S. 286–289.

¹¹ Шукуров Ш. История развития глагольных форм узбекского языка (настоящее и будущее времена). –Ташкент: Фан, 1966. –138 с.; Хайдаров С. Роль Дурбека в развитии узбекской советской литературы: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1962. –С. 6; Фазылов Э.И. Староузбекский язык. Хорезмские памятники XIV в. –Ташкент: Фан, 1966. Т.1. –214 с.; Рабғузий, Носируддин Бурхонуддин. “Қисаси Рабғузий” (Масъул муҳаррир Н.А. Асилова; Сўз боши муаллифи Э.Фозилов). К. I. –Тошкент: Ёзувчи, 1990. –Б. 5.

¹² Dadaboyev H. “Qisasi Rabg‘uziy” tilidagi turkiy leksemalar semantikasi // Filologiya masalalari, 2005/4, 2006 1(10). –B. 73-77.

¹³ Маллаев Н. История узбекской литературы с древнейших времен до XVII века: Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. –Ташкент, 1963. –С. 27; Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. 1 tom: Eng qadimgi davrlardan XV asrning II yarmigacha. –Toshkent: Fan, 1978.

¹⁴ Остонакулов И. “Кисас ар-Рабғузий” – адабий асар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. –Тошкент, 1993. –Б. 24.

¹⁵ Абдушукуров Б.Б. “Қисаси Рабғузий” лексикаси. –Тошкент: Asian Book House, 2017. –Б. 30.

¹⁶ Курбаниязов М.А. XIV аср ўзбек адабиётида хикоят жанри тараққиёти (“Қисаси Рабғузий” мисолида): Филол. фан. б-ча фалс. докт. (PhD) ... дисс. –Қарши, 2019. –Б. 144.

¹⁷ Ҳаққулов И. Занжирбанд шер қошида. –Тошкент: Юлдузча, 1989. –Б. 11–123.

¹⁸ Мирзакаримова У. Морфологические особенности «Кисаси Рабгузи»: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1969. –С. 39.

¹⁹ Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. –Тошкент: Фан, 1978. –Б. 94–96.

guvoh bo‘lamiz²⁰. Folklorshunos M.Jo‘rayev “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi afsona va hikoyatlarni kosmogonik mifologiya nuqtayi nazaridan tadqiq qilgan²¹. Adabiyotshunos N.Jabborov “Ma‘rifat nadir” kitobida Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi hikoyatlarni tahlilga tortib, ulardagi ma‘rifiylik masalasini alohida tadqiq etgan²². Olima M.Jo‘rayeva “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi topishmoqlarning genezisi va ularning mazmun-mohiyatini o‘rgangan²³.

“Qisasi Rabg‘uziy” asari eski o‘zbek tilida yaratilganligi bois kitobxonlar uni lug‘at orqali tushunadilar. Adabiyotshunos olim N.Rahmonov asar yaratilgan davrga oid tadqiqotlarida Oltin O‘rda adabiy tilining xususiyatlari haqida alohida to‘xtalib, “Qisasi Rabg‘uziy” va “Nahjul farodis” asarlarining mualliflari Burhoniddin Rabg‘uziy va Mahmud ali ibn As-Saroyi mazkur asarlarni yaratish orqali o‘zlarining turkiy tilga, ya‘ni eski o‘zbek tiliga bo‘lgan muhabbatini namoyish qilganlar²⁴ini ta‘kidlab o‘tadi. Ushbu kitobning eski o‘zbek tilidan bugungi zamonaviy o‘zbek tiliga tabdil qilinishi zarurati undagi bugun iste‘molda bo‘lmagan ko‘plab so‘zlarning qo‘llanilganligidan ham anglashiladi.

Mavzu doirasiga ko‘ra asar qissalari mazmunan rang-barang bo‘lib, yorqin tasvirlarga boyligi bilan ajralib turadi. Undagi koinot sarvari bo‘lgan Allohni ulug‘lash, payg‘ambarlar hayotiga doir voqealarni qalamga olish, vatanparvarlik, erk va adolat, ota-ona va farzand munosabatlari, ilohiy muhabbat, shuningdek, dunyoviy sevgiga sadoqat, insonlar o‘rtasidagi do‘stlik va hamjihatlik, urush va tinchlik kabi mavzular ifodasi shular jumlasidandir. Asarning aynan shu mavzulari tadqiqot yo‘nalishlarini belgilash uchun muhim mezon sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi Nuh (a.s.) qissasi misolida mazkur obrazning tarixiy-genetik asoslarini, xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotdagi o‘rnini, uning badiiy xususiyatlarini, yaxlit kompozisiya tarkibidagi vazifalarini o‘rganish, bu obrazning “Qisasi Rabg‘uziy”dagi boshqa obrazlar bilan uyg‘un va farqli jihatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

“Qisasi Rabg‘uziy”dagi Nuh (a.s.) qissasining Oltin O‘rda o‘zbek adabiyoti rivojini belgilaydigan omillardan biri ekanligini dalillash;

Nuh (a.s.) qissasini yaratishda muallif o‘zbek mumtoz adabiyotiga oid tasavvufiy timsollardan, ramziy obrazlardan foydalanganligini tadqiq etish;

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida keltirilgan Nuh (a.s.) obrazini diniy qahramon sifatida emas, balki yozma adabiyotdagi adabiy qahramon sifatidagi estetik vazifasini asoslash;

²⁰ Султонов И., Хайитметов А. Ўзбек насри тарихидан. –Тошкент: Фан, 1982. –Б. 22–31.

²¹ Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналарининг тарихий асослари: Филол. фан. д-ри ... дисс. –Тошкент, 1996. –Б. 67; Шу муаллиф. Фольклоршунослик асослари. –Тошкент: Фан, 2008. –Б. 23; Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. –Тошкент: Фан, 2001. –Б. 60–62.

²² Жабборов Н. Маърифат надир. –Тошкент: Маънавият, 2010. –Б. 14–17.

²³ Жўраева М. Ўзбек халқ топишмоқларининг генезиси: Филол. фан. б-ча фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. –Тошкент, 2017. –Б. 11.

²⁴ Раҳмонов Н. Тил “Мен” ва олам бирлашадиган мухитдир // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 2020 йил, 16 октябрь.

mazkur qissaning janriy xususiyatlarini o‘rganish va turli janrdagi matnlarning asardagi vazifasini yoritish;

Nuh (a.s.) qissasini diniy manbalar, eposlar, tarixiy asarlardagi ma’lumotlar, ulardagi o‘xshash va farqli detallarni solishtirib o‘rganish;

Nuh (a.s.) qissasidagi To‘fon voqeasining tarixiy asoslari, Sharq xalqlari yozma yodgorliklariga transformatsiyasi masalasini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti. Tadqiqot obyekti sifatida Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi Nuh (a.s.) qissasi, turli etnografik ma’lumotlar, boshqa ayrim xalqlardagi To‘fon afsonasi jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti. Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari, boshqa nabiyalar haqidagi qissalari va xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi Nuh (a.s.) obrazi bilan bog‘liq bo‘lgan syujetlar, lavhalar, timsollar va ularning qiyosiy tadqiqi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida struktural tahlil, analitik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Qisasi Rabg‘uziy”dagi rivoyat, naql, hikoyat janrlari qatori Nuh payg‘ambar qissasi voqealari mohirona badiylashtirilganligi hamda oddiy, xalqona uslub, sodda va ravon tilda bayon qilinganligi bilan Oltin O‘rda o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos jihatlarini belgilaydigan omillardan biri ekanligi isbotlangan;

Nuh (a.s.) qissasida Rabg‘uziy o‘zbek mumtoz she‘riyatidagi qahramonlarga xos, insoniyatni komillikka chorlovchi tasavvufiy timsol ekanligi yoritildi; Nuh (a.s.) obrazini berishda nur timsoliga badiiy detal sifatida murojaat qilinib, mumtoz adabiyotda talmeh sana‘tini hosil qilgan va asarning diniy-ma‘rifiy, badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilishi isbotlangan;

Nuh (a.s.) obrazi diniy obraz sifatida emas, balki yozma adabiyotdagi adabiy qahramon sifatida qaralib, estetik vazifa bajarishiga asoslangani orqali “Qisasi Rabg‘uziy”ning agiografik asarlar orasida tutgan o‘rni dalillangan;

Nuh (a.s.) obrazi kabi ilohiy timsollarning o‘ziga xos ramziy-majoziy xususiyatlari “Tavrot”, “Injil”, “Qur‘oni karim” kabi diniy-ma‘rifiy, “Mahobxarata”, “Bilgamish” kabi xalq eposlari, “To‘rt ulus tarixi”, “Shajarayi tarokima” kabi tarixiy asarlarning, shuningdek, Shumer yozma yodgorliklaridagi To‘fon voqeasining tarixiy ildizlari, Sharq xalqlari yozma yodgorliklariga transformatsiyalashuvi qiyosiy tahlillari asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Qisasi Rabg‘uziy” asarining agiografik asarlar orasida tutgan o‘rni, o‘zbek hamda xorijlik tadqiqotchilarning asarlaridagi nazariy qarashlar umumlashtirilib, mavzu yuzasidan tegishli ilmiy xulosalarga kelingan;

agiografik asarlarda Nuh (a.s.) obrazining badiiy-estetik vazifasi yoritib berilgan;

asardagi janrlar rang-barangligi, hikoya, qissa, rivoyat janrlarining, savol-javob usulining vazifalari aniqlanib, boshqa asarlar bilan qiyosiy o‘rganilgan;

Nuh alayhissalomga oid manbalar va qadim zamonlarda kishilarning hayvonot va nabotot haqidagi qarashlari, ularning genezisi va boshqa diniy asarlarning ta‘siri bilan bog‘liq ekanligi oydinlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma'lumotlarni va detallarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, qo'yilgan muammoning aniq va yetarlicha dalillangani, tadqiqot natijasida chiqarilgan xulosalarning amaliyotga joriy etilgani va vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani, dunyo adabiyotshunosligining yangi yo'nalishlari va tahlil usullari asosida ilmiy-nazariy asoslangani bilan belgilanadi.

Shuningdek, uslubiy jihatdan asoslangan yondashuv va tahlillar amalga oshirilganligi, Nuh (a.s.) qissasidagi obrazlarni tizimli yoritish, janrlar rang-barangligini taqqoslash va umumlashtirish usullarining ishlatilishi, nazariy va amaliy tadqiqot natijalari va ularning o'zaro muvofiqligida ham ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Nuh payg'ambar bilan bog'liq ma'lumotlar, mazkur obrazning boshqa asarlarda ham uchrashi, obrazning qiyosiy tadqiq etilishi, "Qisasi Rabg'uziy" asarining janriy xususiyatlari, turli janrdagi matnlarning asarda tutgan o'rni, shuningdek, Nuh payg'ambar haqidagi ma'lumotlarning ilohiy kitoblardagi mazmun bilan o'xshash va farqli jihatlari haqidagi qarashlarning o'zbek adabiyoti tarixi, adabiyot nazariyasi fanlarining rivojiga ma'lum darajada xizmat qilishi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ushbu dissertatsiya ishi materiallari va umumiy xulosalaridan o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyot bosqichlarini o'rganish va tarixini yaratishda, ta'limning turli bosqichlari, jumladan, oliy o'quv yurtlari, akademik litseylar va umumta'lim maktablarida o'zbek adabiyoti fani bo'yicha darslik va qo'llanmalarni to'ldirishda, oliy o'quv yurtlarida maxsus kurslardan seminarlar o'tkazishda hamda ma'ruzalar o'qish, amaliy mashg'ulotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "O'zbek mumtoz adabiyotida Nuh alayhissalom obrazi" mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

"Qisasi Rabg'uziy"dagi rivoyat, naql, hikoyat janrlari qatori Nuh payg'ambar qissasi voqealari mohirona badiylashtirilganligi hamda oddiy, xalqona uslub, sodda va ravon tilda bayon qilinganligi bilan Oltin O'rda o'zbek adabiyotining o'ziga xos jihatlarni belgilaydigan omillardan biri ekanligi kabi xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PF-201912258-raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 17-sentyabrdagi 04/1-2501-son ma'lumotnomasi). Natijada, Nuh (a.s.) qissasi poetik ifodasida qo'llanilgan har bir poetik unsur mohiyati va funksiyasi ochib berilishiga, badiiy-estetik tahlillar mazmunini boyitishga erishilgan;

Nuh (a.s.) qissasida Rabg'uziy o'zbek mumtoz she'riyatidagi qahramonlarga xos, insoniyatni komillikka chorlovchi tasavvufiy timsol ekanligiga; Nuh (a.s.) obrazini berishda nur timsoliga badiiy detal sifatida murojaat qilinib, mumtoz adabiyotda talmeh sana'tini hosil qilgan va asarning diniy-ma'rifiy, badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilishiga doir ma'lumotlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan IZ-2021020813-raqamli "Alisher Navoiy ijodining xorijda o'rganilishi va targ'iboti

asosida ko‘p tilli multimediya to‘plamini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 10-dekabrda 04/1-4069-son ma’lumotnomasi). Natijada, Nuh (a.s.) obrazini diniy obraz sifatida emas, balki yozma adabiyotdagi adabiy qahramon singari estetik vazifasi, qissaning janriy xususiyatlari, turli janrdagi matnlarning asardagi mahoratini ochib berishga imkon bergan;

Nuh (a.s.) obrazi kabi ilohiy timsollarning o‘ziga xos ramziy-majoziy xususiyatlari “Tavrot”, “Injil”, “Qur’oni karim” kabi diniy-ma’rifiy, “Mahobxarata”, “Bilgamish” kabi xalq eposlari, “To‘rt ulus tarixi”, “Shajarayi tarokima” kabi tarixiy asarlarning, shuningdek, Shumer yozma yodgorliklaridagi To‘fon voqeasining tarixiy ildizlari, Sharq xalqlari yozma yodgorliklariga transformatsiyalashuvi qiyosiy tahlillari bilan bog‘liq ilmiy-nazariy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasi “Madaniy-marifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon”, “G‘azal bo‘stoni” kabi turkum ko‘rsatuvlar va eshittirishlarning senariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 25-noyabrda 04-36-1215-son ma’lumotnomasi). Natijada, radioeshittirishlar senariylari yangi ma’lumotlar bilan boyitilgan, Nuh (a.s.) obrazi tadqiqi bilan bog‘liq asarlar talqini keng ommaga havola etilib, ularning ilmiy-ma’rifiy saviyasini yanada yuksalishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 137 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

“Kirish” qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, tadqiqotning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qisas ul-anbiyo”lar nodir adabiy manbalar sifatida** nomli birinchi bobida “Qisasi Rabg‘uziy” asarining agiografik asarlar orasida tutgan o‘rni va mumtoz lirikada Nuh obrazining talqinlari berilgan.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarining agiografik asarlar orasida tutgan o‘rni nomli ilk faslida Nuh payg‘ambar qissasi Oltin O‘rda o‘zbek adabiyotining rivojini belgilaydigan omillardan biri ekanligi isbotlangan. Sharq adabiyotida agiografik

usulida yozilgan asarlar payg‘ambarlar, avliyolar tarixi va ularning axloqiy fazilatlarini tasvirlashi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Ta’kidlash joizki, G‘arb agiografik asarlariga qaraganda Sharq agiografik asarlarining o‘rganilishi nisbatan kam amalga oshirilgan. Bunday asarlarni o‘rganishga mustaqillikdan so‘ng e’tibor berila boshlandi. Chunki istiqlolgacha bo‘lgan davrda bu turdagi asarlarni o‘rganishda cheklovlar bo‘lgan. Bu borada N.Komilov²⁵, U.Uvatovlar²⁶ tadqiqot olib borganlar. Tarixiy jihatlari borasida esa I.Ostonaqulov XVIII asrda ijod qilgan Muhammad Siddiq Rushdiyning “Tazkiratu-l-avliyo” asarini o‘rganib chiqib, uni bebaho asar sifatida ilmiy muomalaga olib kirgan²⁷.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarining yaratilishi To‘qbo‘g‘a hukmronligi davriga borib taqaladi (*Tarix yuz elining avvalida qosud bitildikim, payg‘ambarlar qissalariga g‘oyat rag‘batim bor*)²⁸. Rabg‘uziy bergan ma’lumotlardan shuni anglash mumkinki, To‘qbo‘g‘abek avliyolar, ya’ni payg‘ambarlar tarixiga mansub bo‘lgan arab va fors tilidagi qissalardan xabardor bo‘lgan. U bu kabi asarlarning ayrimlarida kamchiliklar mavjudligi sababli Rabg‘uziy yaratayotgan asar ularga nisbatan mukammal bo‘lishini istashini aytadi. Shuningdek, bu asar “Qisas ul-anbiyoyi turkiy” nomi bilan ham shuhrat topadi. Asar boshqa anbiyolar qissalari singari an’anaviy hamd va na’t bilan boshlanadi. Ushbu asar o‘zida qipchoq, qarluq va o‘g‘uz lahjalari xususiyatlarini aks ettiradi.

Asarda Rabg‘uziyning Yassaviy ijodiga yaqinliklari ham kuzatiladi. Rabg‘uziy qo‘llagan savol-javob usuli Yassaviy hikmatlarida ham ko‘zga tashlanadi. Bunga “*Behisht va Do‘zax munozarasi*” yaxshi misol bo‘la oladi:

*Behisht – do‘zax talashur, talashmoqda ziyon bor,
Do‘zax aytur: Man ortuq, Fir‘avn, Homon manda bor.
Behisht aytur: “Na dersen, so‘zni bilmay so‘zlarsan,
Sanda Fir‘avn bor ersa, manda Yusuf Kan‘on bor!”*²⁹

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida qissa, rivoyat, xabar va boshqa janrlar ta’siri ostida kirib kelgan “savol” va “javob” usuli muhim hisoblanadi. Rabg‘uziy barcha “savol”ga hikmat, ya’ni sir, sabab yuklaydi, “javob” ana shu sirlarning sababini ochadi³⁰. Ba’zan qissa tarkibida “savol” bitta bo‘lgani holda, javoblarning bir necha variantlarini keltiradi. Masalan: “Yusuf” qissasi boshlanishida “*ahsan ul-qisas*” – “*qissalarning eng go‘zali*” deb ta’rif beriladi. So‘ngra Rabg‘uziy “Yusuf”qissasining mohiyatiga va qissaning haqiqatdan go‘zal qissa ekaniga e’tibor qaratadi: “*Savol: “Ahsan” demakda hikmat ne erdi?*” Rabg‘uziy ushbu savolga to‘qqizta javob ilova qiladi. Javoblar so‘ngida “*Yusuf*” surasi o‘n turli qayg‘udan xalos qiladigan xislatga egaligini ta’kidlaydi.

“Qisasi Rabg‘uziy” agiografik asarlar qatorida o‘rganilishi sabab, asarlarning tarixi, albatta, Qur’oni karimga borib taqaladi. Nuh (a.s.) va qavmlari qissasi

²⁵ Уватов У., Сайфиев Х. Абу Муин Насафий. –Тошкент: Мовароуннахр, 2018.

²⁶ Остонакулов И. Мухаммад Сиддик Рушдий “Тазкирату-л-авлиё” асарининг шарқ агиографик манбаларини ўрганишдаги аҳамияти: Тарих фан. д-ри ... дисс. автореф. –Тошкент, 2014. –Б. 5.

²⁷ Тулибаева Ж.М. Духовная культура народов Центральной Азии: и агиографические сочинения // Сборник материалов. «Фундаментальные и инновационные проблемы востоковедного образования и науки». – Алматы, 2011.

²⁸ Рабғузий, Носируддин Бурхонуддин. «Қисаси Рабғузий» (Масъул муҳаррир Н.А. Асилова; Сўз боши муаллифи Э.Фозилов). К. I. –Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 6.

²⁹ Хожа Ахмад Яссавий. Ўзбек мумтоз адабиёти девони. –Тошкент: Book media nashr, 2019. –Б. 97.

³⁰ Rahmonov N.A. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). –Toshkent: Sanostandart, 2017. –B. 233–234.

“A’rof”, “Yunus”, “Hud”, “Mo‘minun”, “Shuaro”, “An’om”, “Qamar” suralarida mufassal ravishda tilga olingan. Bundan tashqari, butun boshli “Nuh”³¹ surasi u zotga atalgan, boshidan oxirigacha Nuh (a.s.) hayotiga bag‘ishlangan.

Adabiyotshunos olim I.Ostonaqulov asar manbasini ikki turga: adabiy va tarixiy manbalarga bo‘lib o‘rganishni ilgari suradi³². Biz ham ushbu fikrni ma’qul deb hisoblaymiz, o‘rta asr adabiyoti haqida so‘z ketganida “Qadimgi va o‘rta asrlardagi yozma adabiyot xalq og‘zaki ijodisiz rivojlanishi mumkin emasligini”³³ to‘g‘ri ta’kidlagan tadqiqotchi M.Kurbaniyazovning fikrlarini e’tirof etmaslikning ham iloji yo‘q. Chunki xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish har qanday badiiy asarni xalqning yuragiga kirib borishiga asos bo‘ladi. Ana shu ikki yondashuvni umumlashtirib, “Qisasi Rabg‘uziy”ning shu kungacha mashhur bo‘lishida “*din – folklor – adabiyot*” uchligining o‘rni muhim degan xulosaga keldik. Agiografik asarlar Oltin O‘rda davlatining ijtimoiy va madaniy ehtiyojlari tufayli yuzaga keldi. Bu davr adabiy jarayonida diniy-ma’rifiy oqim asosiy o‘rin egalladi. Bu asar nafaqat agiografik xarakteri, balki turkiy tilning va o‘rta asrlardagi adabiyotning janrlar tarkibini ko‘rsatganligi bilan ham qimmatlidir.

Birinchi bobning “*Mumtoz lirikada Nuh obrazining talqinlari*” nomli ikkinchi faslida Nuh (a.s.) qissasini yaratishda Rabg‘uziy o‘zbek mumtoz she’riyatiga xos tasavvufiy timsollardan, nur singari ramziy obrazlardan foydalangani bois qissa tarkibida yuzaga kelgan o‘zgarishlarning sabablari asoslangan.

Mumtoz adabiyotda payg‘ambarlar obrazlarining o‘ziga xos silsilasi mavjud. Misol tariqasida Yusuf obrazida “ko‘ylak”, “idish” (voqeadan xabar beruvchi), “tush”, “quduq”, Muso obrazida “bayzo”, “aso”, Sulaymonda “uzuk”, “shamol”, “taxt”, “chumoli”, Masihda “xuffosh”, “igna”, “nafas” va hokazolar. Shu tariqa badiiy talqinlarda obraz va detallar mumtoz she’riyat poetika tarovati uchun xilma-xil ramz vazifalarini bajargan. Xizr esa tiriklik suvi, mangu hayot tushunchalari bilan bog‘lanib, Nuh obrazi tasvirida “to‘fon”, “uzoq umr” motivlari birlashadi.

Mumtoz adabiyot o‘z bag‘rida mazkur obraz tadrijiga oid ko‘plab fakt va materiallarni jamlagan. Sayyid Ahmadning “Taashshuqnoma” asari XV asrning ikkinchi yarmida yaratilgan. Asarning “Na’ti nabi alayhissalom” qismida:

*Yaratti Nuh-u Ibrohim-u Muso,
Sulaymon birla Dovud-u Masiho*³⁴.

Adib ushbu silsilada Allohning Nuh, Ibrohim, Muso, Sulaymon, Dovud, Iso kabi payg‘ambarlarni ham yaratganini eslab o‘tadi.

Shuningdek, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Xofuz Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Navoiy va boshqa buyuk adiblar she’riyatida ushbu obrazning talmeh, mubolag‘a, tazod, husni ta’lil kabi she’riy san’atlar tarkibidagi ishtiroki ancha faol sanaladi. Masalan, “Navodir ush-shabob”dagi “Aro” radifli g‘azalda bu haqda keltirib o‘tilgan:

*Har necha to‘foni isyonim chekar gardung‘a mavj,
Kimsaga Nuh o‘lsa kashtiybon ne g‘am to‘fon aro*³⁵.

³¹ Тантовий Муҳаммад Саййид. Пайғамбарлар тарихи. (Қуръони Карим қиссалари) / Таржимон Зиёвуддин Раҳим. –Тошкент: Shaq, 2021. – Б. 37.

³² Остонақулов И. «Қисас ар-Рабғузий» – адабий асар: Филол. фан. номз. ... дисс. –Тошкент, 1993. –Б. 35.

³³ Кurbaniyazov M. “Qisasi Rabg‘uziy”da folklorizmlar // O‘zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2016. –3-son. –B. 69.

³⁴ Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 2 жилд. (XIX-XV аср). –Тошкент: Фан, 2007. –Б. 160–320.

³⁵ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Тўртинчи том. Наводир уш-шабоб. – Тошкент: Фан, 1989. Ҳазал 5.

Agiografik usulda yozilgan asarlar axloqiy, ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, janr va mavzu mushtarakligiga qaramay ulardagi ijodkor uslubi bir-biridan jiddiy farq qiladi. Masalan, Alisher Navoiy ijodiga nazar tashlasak, uning asarlarida o'z axloqiy qarashlari, diniy yondashuvi bilan boyitilganligi ko'rinadi. O'zni kelganda aytish lozimki, Navoiy agiografik asarlarida *“holat”, “manqaba”, “maqoma”, “manoqib”,* ayrim hollarda, *“shajara”, “tarix”, “munojot”, “tazkira”* tarzida nomlanilishida ham ushbu masala namoyon bo'ladi. Nosiriddin Rabg'uziy asarning badiiyatiga ko'p urg'u berib, uning og'zaki ijod asosida shaklantirilishiga, ayniqsa, rivoyatlar, payg'ambarlar va aziz-avlialar to'g'risidagi qissalar, ibratli hikoyatlar yozishga alohida alohida e'tibor qaratgan.

O'zbek adabiyotida g'azalning ilk namunalari Rabg'uziyning *“Qisas ar-Rabg'uziy”,* Xorazmiyning *“Muhabbatnoma”*sida uchraydi; keyinchalik Sayfi Saroyi, Hofiz Xorazmiy, Yusuf Amiriy, Sakkokiy, Atoyi, Gadoiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Ubaydiy, Mashrab, Mujrim-Obid, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar va boshqalar ijodida rivojlantirildi³⁶.

*Yagdi yamg'ur, esdi yellar, ostun-ustun olti oy,
Ko'rsa mundog' mundin ortuq mavlomizning qudrati*³⁷.

Ushbu misralarda *“To'fon”* balosi tasvirlangan.

Mumtoz adabiyotdagi ko'lamdor obrazlardan biri Ayyub alayhissalomdir. Uning bosh sifati *“sabr-toqati, bardoshi va chidamli ekanligi”*dir, u ana shu xislatlari bilan boshqa payg'ambarlardan ajralib turadi. Lutfiy, Atoyi, Gadoiy ijodida Ayyub (a.s.) va Nuh (a.s.) obrazlariga ishora qilingan. Ayyub (a.s.) obrazida oshiqning yor vasliga yetishmoq istagi, umidvorligi, hijron azobida qiynalgani, ko'rsatgan sabr-bardoshi Nuhning umriga qiyoslagani baytlar misolida ko'rinadi. Lutfiyda:

*Gar ilik tutsang ravon tutqin, begim,
Sabri Ayyub o'lsa, yo'qtur umri Nuh*³⁸.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, XI-XIII asrlarda Yassaviy va Rabg'uziy asarlarida; XIV-XV asrlar (Temuriylar davri) adabiyotida S.Saroyi, Lutfiy, Hofiz Xorazmiy, A.Navoiy, Atoyi, Sakkokiy, Gadoiy ijodida; XVI-XIX asrlar 1-yarmida S.Olloyor, Mashrab, Xo'janazar Huvaydo, Sh.Munis, M.Ogahiy ijodida Nuh a.s. murojaat etilgan jihatlari aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Nuh payg'ambarga oid qissalarda obrazlar va janrlar tizimi”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida Nuh (a.s.)qissasida obrazlar tizimi va qissadagi janrlar rang-barangligi yoritilgan.

Bobning *“Nuh alayhissalom qissasida obrazlar tizimi”* nomli birinchi faslida Nuh (a.s.) obrazini diniy qahramon sifatida emas, balki yozma adabiyotdagi adabiy qahramon sifatidagi estetik vazifasi asoslangan. *“Qisasi Rabg'uziy”*da ko'plab obrazlar yaratilganki, qiyosiy va tizimli tahlil orqaligina ular haqida bir xulosaga kelish mumkin.

Nuh – diniy obraz (tarixiy obraz deb ham ayta olamiz) *“Qur'oni karimga zikr bo'lg'on va hammamizga bilmoq vojib bo'lg'on payg'ambarlar 28 tadur”*³⁹. Nuh (a.s.) ana shularning biri. Xalqimiz orasida keng tarqalishida islom dinining ta'siri

³⁶ Эргаш Очилов. Бир ҳовуч дур. –Тошкент: Ўзбекистон, 2011. –Б. 15.

³⁷ Рабғузий, Носируддин Бурхонуддин. «Қисаси Рабғузий» (Масъул муҳаррир Н.А. Асилова; Сўз боши муаллифи Э.Фозилов). К. I. –Тошкент: Ёзувчи, 1990. –Б. 39.

³⁸ Лутфий. Девон. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. –Б. 347–352.

³⁹ Ислom дини асослари. 1-китоб. –Тошкент: Фан, 1991. –Б. 9.

kuchli bo‘ldi. Nuh (a.s.) suv toshqini bilan aloqador obraz. Shu bilan birga, uzoq umri bilan ham xarakterlanadi. Sulaymon Boqirg‘oniyning bir baytida bunga ishora qilingan.

*Qane ud ming yashagan odam o‘g‘li,
Mingda uch yuz yil umri bo‘lg‘on Nuhi nabi*⁴⁰.

Payg‘ambarlar kulti bilan bog‘liq obrazlarni o‘rgangan elshunos olim G.P.Snesarev izlanishlari ham mazkur fikrni tasdiqlaydi.

Boshqa bir rivoyatga ko‘ra esa Vadd, Suva’, Yag‘us, Ya‘qub va Nasrlar ahli solih, taqvodor kishilar bo‘lganlar. Ularning vafotidan so‘ng, kishilar nihoyatda yaxshi ko‘rganlaridan ularning rasmlarini chizib sig‘ina boshlashgan⁴¹. Shunda Alloh taolo ularga O‘zigagina ibodat qilishi uchun ilohiy risolat bilan Nuh alayhissalomni payg‘ambar qilib yuboradi. Ibn Kasir o‘z tafsirlarida Ibn Abbos (roziyallohu anhu) rivoyatida ham bu haqda keltirib o‘tadi.

Yuqoridagi hikoyalardan kelib chiqib, oyati karimalarda ilohiy va tarixiy obrazlar, shuningdek, olamning yaralishiga sababchi bo‘luvchi obrazlar paydo bo‘lganini ko‘ramiz.

Suralarda dengiz to‘lqinlari, (“Hud” – surasida Nuhning farzandidan ajratishga) sabab bo‘lgani bois dengizni ham obraz sifatida tasavvur qilish mumkin. Nuh surasida nur, quyosh, yomg‘ir, yer, ko‘k obrazlari shakllangani ma‘lum bo‘ladi. Zero, bu detallar orqali voqealarning kichik-kichik hikoyalarga ko‘chgani nazarga tusha boshlaydi. Masalan, “*Xabarda andog‘ kelur, izi azza va jalla qamug‘da ashnu bir gavhar yaratti. Ul gavharga haybat nazari qildi ersa ul gavhar erudi. Suv bo‘ldi ersa anda kezin elni yaratdi. Suv uza tushti ersa qum urdi ko‘piklandi...*”⁴². deya nimalarni yaratganligini sanab o‘tadi.

Rabg‘uziy asaridagi xarakterli qissalardan biri Nuh to‘g‘risidagi qissadir. Bu qissadagi eng qiziqarli o‘rin parranda, hayvonot dunyosidagi turli xususiyatlarni izohlovchi hikoyatdir. Masalan, “*ari*” obrazida g‘o‘ng‘illab uchishiga oid shunday hikoya keltirilgan: *Xabarda andog‘ keltirmishlar, uch narsa yo‘q erdi. Kemada, daryo ichinda bo‘ldi. Biri mushuk, ikkinchisi sichqon, uchunchisi to‘ng‘iz...*”⁴³.

Bu qissada ko‘proq hayvonot obrazlari harakatlanadi. Ya‘ni *sichqon, ari (singak), ilon (yilon), mushuk, arslon, qaldirg‘och (qarlug‘och), to‘ng‘iz*. Ularni ijobiy va salbiy obrazlarga ajratib o‘rganish mumkin.

Yana bir hikoyada kema tayyor bo‘lgan vaqtda Nuhning xotini tandirda non pishirardi. (Boshqa bir manbada “*Nuhning kofir evlugi tandurda etmak pishururda tanur ichinda suv chiqdi*”⁴⁴) va Nuhga xabar berdi. Shu yerda “*Tanur*” – ya‘niy *tandir*”ni ham obraz sifatida olamiz. Chunki suvning ilk chiqishi tandir ichida boshlangan.

Qissada keltirilgan “chinor daraxti” ham tabiat tasvirini ifodalagan obrazdir. U ekilgan joy G‘oyib bobo (yashiringan), Chinor bobo (daraxt), Kechirmas bobo kabi nomlar orqali ataladigan ziyoratgohlardir. Ushbu holatlarda ko‘proq tabiat

⁴⁰ Сулаймон Боқирғоний. Боқирғон китоби. –Тошкент: Ёзувчи, 1991. –Б. 18.

⁴¹ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 20-жуз. Анбиёлар қиссаси китоби. –Тошкент: Нилol-Nashr, 2023. –Б. 69–70.

⁴² Рабғузий, Носируддин Бурҳонуддин. «Қисаси Рабғузий» (Масъул муҳаррир Н.А. Асилова; Сўз боши муаллифи Э.Фозилов). К. I. –Тошкент: Ёзувчи, 1990. –Б. 12.

⁴³ O‘sha manba: –Б. 43.

⁴⁴ O‘sha manba: –Б. 41.

kuchlarini olqishlovchi musulmonlikdan avvalgi davrlarga oid qarashlar o‘z aksini topgan⁴⁵. Demak, Chinor bobo ziyoratgohining paydo bo‘lishi va Nuhning kemasi o‘rtasida aloqadorlik afsonalarda ko‘zga tashlanadi.

Gunohkorlarni kechirmasligi, Allohning suygan bandasi ekani Nuh (a.s)ni eslatsa, kasalliklarga bog‘liqligi, jafokashligi Ayyub (a.s)ga o‘xshaydi. Kechirmas boboga ana shu ikki payg‘ambar obrazi ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin.

Tarixchi olim Abu Hanifa Ahmad Dovud Diynaraviyning “الطوال الخبار كتاب” – “Kitob al-axbor al-tavol” asarida payg‘ambar va podshohlar haqida hikoya qilinadi. Asarda Odam alayhissalomning yaratilishi voqeasi asosida boshlanadi. Undan so‘ng Nuh (a.s.) uning o‘g‘illari va uning avlodlari tilga olinadi. Diynaraviy shoh Jamshidni Nuh payg‘ambarning o‘g‘li Somning naslidan ekanligini qayd etadi: (*Jamshid Somning Arfaxshaz degan o‘g‘lining Yunjahon otliq farzandining zurriyodidir*)⁴⁶.

Tadqiqotchi Matluba Djabborovanning ta’kidlashicha, “Jamshidning kelib chiqishi haqidagi ma’lumotlar boshqa qaydlardan birmuncha farq qiladi, Jamshid “Avesto”da Vayvangxonning og‘li sifatida tasvirlansa⁴⁷, o‘zbek xalq kitobi “*Qissai Jamshid*”da ham shoh Jamshidning kelib chiqishi Nuh payg‘ambarga borib taqaladi deyilgan. Demak, Jamshidning Nuh alayhissalomga avlod sifatida tasvirlanishi ilk marta Diynavariydan boshlangan va bu tasvir “Qissai Jamshid”ga ko‘chgan.

Xalq og‘zaki ijodida *ilon va baqa* obrazlarining folklor asarlaridagi o‘zaro munosabati juda murakkab. Mazkur mifologik afsona asosan ikki xil, bir-biriga yaqin va tugallangan syujetlar birikuvidan tashkil topgan. Birida ilon obrazi ildizlari qadimgi muqaddas *kultlar* bilan bog‘lanib ketadi⁴⁸. Tadqiqot davomida Nuh a.s. qissalaridagi obrazlar tizimini yoritish maqsadida mavjud obrazlar 4 turga ajratildi.

Ilohiy obrazlar	Hayvonlar va qushlar obrazi	Tabiat tasviri ifodalagan obrazlar	Tarixiy obrazlar
Odam a.s.	Yilon	Chinor	Odam a.s.
Nuh a.s.	Eshak	Tanur (tandir)	Nuh
Shis a.s.	Kugarchkuk (kabutar)	Nur	Kema
Idris a.s.	Arslon	Quyosh	
Qobul va Hobul	Sichqon	Yer	
Avj ibn Unuq	Singak (qaldirg‘och)	Ko‘k	
Iblis	To‘ng‘iz	Yomg‘ir	
Som	Mushuk		
Xom	Tilki (tulki)		
Yofas			

Ikkinchi bobning “*Qissadagi janrlar rang-barangligi*” nomli ikkinchi faslida qissachilikning qadimgi zamondan to hozirgacha og‘zaki variantlari bilan bir qatorda yozma turi ham shakllangani tadqiq qilinadi. Jumladan, “Klassik poeziya namunalarining baxshilar tomonidan folklorga xos ravishda qayta ishlanishi

⁴⁵Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf-odatlari: Монография. – Урганч, 2018. –Б. 267.

⁴⁶Джабборова М.Р. Мумтоз адабиётида Жамшид образининг бадий талқини: Филол. фан. б-ча фалс. докт. (PhD) ... дисс. –Тошкент, 2020. –Б. 31.

⁴⁷ Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Таржимон: А.Махкам. –Тошкент: Шарк, 2001. –Б. 15.

⁴⁸ Шевяков А.И. Образ лягушки в верованиях народов Евразии // Отв. ред. Э.В.Ртвеладзе. –Ташкент, 1995. – С. 13.

natijasida yuzaga chiqishi yoki yaratilishi jihatidan yozma adabiy manbaga ega bo'lgan, bevosita yozma adabiyot ta'sirida yaratilgan asarlarni kitobiy dostonlar deyish mumkin"⁴⁹, deb aytilgan fikr qissalarning ilk shakllariga xosdir.

Asardagi qator janrlar – qissa, hikoyat, rivoyat, latifa, hikmat, xabar, foyda, munojot va boshqalar borki, ular o'zaro ta'sir jarayonida “Qisasi Rabg'uziy”ning To'qbug'abek orzu qilgan “o'qumoqg'a keraklik, o'granmakga yarog'lig”⁵⁰ asar sifatida yaratilishiga xizmat qilgan.

“Qisasi Rabg'uziy”dagi hikoyat janri namunalari ham salmoqli. Ularni quyidagicha guruhlashtirish mumkin: 1. Mutasavvuf va tasavvuf axloqiga oid hikoyatlar. 2. Axloqiy-ta'limiy hikoyatlar. 3. Ijtimoiy mazmundagi hikoyatlar. 4. Mo'jizaga oid hikoyatlar⁵¹. Qissa tarkibida oxirgi turkum namunalari ko'proq uchraydi. Xususan, “Qissai Nuh nabi alayhissalom”dagi Nuhning qizi haqidagi va boshqa qator hikoyatlar shu turkumga mansub. “Uzum hikoyati” keltirilgan. “Hazrati Nuh alayhissalom kemada shayton bilan suhbatlarida unga javob topa olmay, ittifoqo uzumning urug'ini yo'qotib qo'ydilar...”⁵². Bu hikoyatda insonlarning mast holda yurishini, umuman, o'tkir ichimliklar ichishini qoralash maqsadi berilgan. Undagi asosiy qahramon Shaytondir. U to'g'ridan-to'g'ri “Shaytoni mal'undir”, – deb ta'riflanadi. “Mal'un” – la'natlangan, haydalgan demakdir. Shuningdek, Rabg'uziy keltirgan hikoyat bir manbadan emas, bir necha manbadan olingani ayon bo'ladi: “Hikoyatda andog' kelur: Mashriqdin mag'ribga qayu yerda tayoq tashlasa, kishi boshiga tushar edi. Taqi aymishlar, mushuk tomdin tomg'a oshib yurisa, yuz yig'och yer yurir erdi...”⁵³. Mana shu hikoyatda keltirilgan “Hikoyatda andog' kelur” va “Taqi aymishlar” jumlasini bir-birini to'ldiradigan ikki manba – yozma va og'zaki manba ishora qiladi.

Tarixshunoslarning tadqiqotlarida (V.Bartold, K.A.Inostransev, N.I.Veselovskiy) Xorazm haqida keltirgan tarixiy ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Masalan, Ko'hna Urganchdan yozib olingan afsonada befarzand ayollar kemaga farzand so'rab borishi *Keksa darg'a* tilidan hikoya qilinadi. Dissertatsiyada bu udum va marosimlar, Anbar onaning o'g'li haqidagi afsona tahlili izchil yoritilgan. Axborotchilarning aytishicha, qayiqning boshi xuddi insonnikiga o'xshaydi, qayrilganda go'yoki inson boshi qayrilgandek tuyuladi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, unda hazrati Nuhning boshi aks etgan bo'lib, u qayiqchilarning piridir. Bu holat eski diniy tasavvurlarning asta-sekin barham topishiga ishora qilib turadi⁵⁴. Shu bilan birga, avloddan-avlodga o'taverishi natijasida boshqacha tasavvurlar ham paydo bo'lgan: qayiq boshida Anbar (Musulmon an'anasiga ko'ra, Anbar ona “kofirlar” orasida islom dinini targ'ib qilgan taniqli shayx Sulaymon

⁴⁹ Мирзаев Т., Саримсоков Б. Достон, унинг турлари ва тарихий тараққиёти // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. –Тошкент, 1981. –Б. 23.

⁵⁰ Рабғузий, Носируддин Бурхонуддин. «Қисаси Рабғузий» (Масъул муҳаррир Н.А. Асилова; Сўз боши муаллифи Э.Фозилов). К. I. –Тошкент: Ёзувчи, 1990. –Б. 152–153.

⁵¹ Курбаниязов М. XIV аср ўзбек адабиётида хикоят жанри тараққиёти (“Қисаси Рабғузий” мисолида): Филол. фан. б-ча фалс. докт. (PhD) ... дисс. –Қарши, 2019. –Б. 57.

⁵² Рабғузий, Носируддин Бурхонуддин. «Қисаси Рабғузий» (Масъул муҳаррир Н.А. Асилова; Сўз боши муаллифи Э. Фозилов). К. I. –Тошкент: Ёзувчи, 1990. –Б. 46.

⁵³ O'sha manba: – Б. 40.

⁵⁴ Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари: Монография. – Урганч, 2018. –Б. 237.

Boqirg‘oniyning xotinidir)⁵⁵ning o‘g‘li Hubbi bo‘lib, u haqidagi hikoyalar ham aks etadi.

Rivoyat qissalar tarkibida eng ko‘p uchraydigan janrlardan biridir. Masalan, Nuh (a.s.) qissasida insoniyatning paydo bo‘lish tarixiga oid rivoyatni keltirar ekan, uni Rabg‘uziy Ubay ibn Ka‘bning asaridan olib keltiradi⁵⁶. Shuningdek, voqealarga aniqlik kiritish maqsadida rivoyatlarni hikoyat bilan bog‘laydi. Rabg‘uziy she‘riy janrlarning har birini o‘z nomi bilan ataydi. Keltirilgan she‘rlar qofiyalanishiga ko‘ra g‘azalni eslatadi, ammo Rabg‘uziy she‘rlarga nisbatan g‘azal terminidan foydalanmaydi, balki *she‘r* deb ataydi. Shu turkumdagi ayrim she‘rlar maqtasida Rabg‘uziy taxallusi keltiriladi:

*Rabg‘uziy Nosir tayanma tunla kunduz ingranib,
Sayrag‘il, suchuk tilingdin so‘z chiqar so‘zlar sog‘i*⁵⁷.

Rabg‘uziyda *hikmat* janri ham keltirilgan. Masalan, “*Yorug‘ jahon maning uza qorardi*” (Ko‘zimga yorug‘ jahon qorong‘u bo‘ldi), “*Sulaymon o‘ldi ersa qamug‘ devlar, parilar qutuldilar*” (Sulaymon o‘lib devlar qutuldi) kabi iboralar hozirgi kungacha xalq orasida keng qo‘llanib kelinmoqda.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida eng ko‘p uchraydigan adabiy shakllardan biri *xabardir*. Rabg‘uziy asaridagi matnlar “xabarda andoq kelur”, “xabarda kelurki” epik qolipdagi boshlanmalar bilan boshlanadi. Qissalardagi payg‘ambar bilan bog‘liq g‘aroyib hodisalar va mo‘jizaviy holatlar bayoni ham xabar orqali keltiriladi. Masalan, Nuh payg‘ambar haqidagi qissada Avj ibn Unuq haqida bir xabar keltiriladi: “*Avj ibn Unuq to‘fonda halok bo‘lmadi. Aning uchunkim, dayyor jumlasindin ermas erdi. Dayyor – evluk – barqilig‘ temak bo‘lur. Avjning barqi yo‘q erdi, tengizlar atog‘inda turur erdi. To‘fon suyi tizinga oshmadi*”⁵⁸.

Ko‘rinib turibdiki, kichik nasriy asarlar qissa, hikoyat, xabar, rivoyat va boshqa janr namunalari asarning ajralmas bir bo‘lagidek bo‘lib ketgan. Kichik epik janrlar qissalar badiiyatini go‘zallashtirgan, mazmunini teranlashtirgan.

Uchinchi bob “**To‘fon voqeasining Sharq yozma yodgorliklarida (Hind, shumer, yahudiy, musulmon va hokazo diniy manbalarda)gi ifodasi**” deb nomlanadi. Mazkur bobda to‘fon afsonasining tarixiy asoslari va Rabg‘uziyning badiiy mahorati bayon etilgan.

Bobning “*To‘fon afsonasining tarixiy asoslari*” nomli birinchi faslida Nuh (a.s.) haqida diniy manbalardagi, jumladan, “Tavrot”, “Injil”, “Qur‘oni karim” kabi muqaddas kitoblarda, “Mahobharata” va “Bilgamish” kabi eposlarda, “To‘rt ulus tarixi”, “Shajarayi tarokima” kabi tarixiy asarlardagi lavhalar, ulardagi o‘xshash va farqli jihatlar yoritilgan, Shumer yozma yodgorliklaridagi To‘fon voqeasining tarixiy asoslari, Sharq xalqlari yozma yodgorliklariga transformatsiyasi tahlil qilingan.

Rus adabiyotshunosligida agiografik asarlar avliyo-anbiyolar hayoti haqidagi qissa va rivoyatlardan mashhur adabiyotshunos D.S.Lixachevning qarashlari

⁵⁵ Бартольд В.В. Сочинения, т. II, ч. I. –М., 1963. –С. 251–252; Залеман К.Г. Легенда про Хаким-ата. –ИАН, 1898, серия V, Т. IX. –С. 105–150.

⁵⁶ Rahmonov N. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha): O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Sano-standart, 2017. –232 b.

⁵⁷ Рабғузий, Носируддин Бурхонуддин. «Қисаси Рабғузий». К. 2. // Масъул муҳаррир Н.А. Асилова; Оятлар, хадислар ва арабий шеърларни ўзбек тилига Ю.Шокиров тарж. –Тошкент: Ёзувчи, 1991. – 197 б.

⁵⁸ Носируддин, Бурхонуддин. «Қисаси Рабғузий» (Масъул муҳаррир Н.А.Асилова; Сўз боши муаллифи Э.Фозилов). К. I. –Тошкент: Ёзувчи, 1990. –Б. 46-47.

e'tiborga molik. "X–XVII asrlarda rus adabiyoti taraqqiyoti" nomli darsligida agiografiyaga oid qarashlari va talqinlari ushbu janrning o'ziga xos turi rus adabiyoti ibtidosida boshlangani haqida so'z boradi. Shuningdek, "Mixail Chernigovskiy voqealari", "Avraam Smolenskiy voqealari" kabi qissalarda ham aynan Iso Masihning izdoshlari singari azobli o'limga o'zini ruhan tayyorlagan tarixiy qahramonlar turadi⁵⁹.

"Bibliya" va "Qur'on" bilan aloqador muqaddas shaxslar: *Muso* (Moisey), *Nuh* (Noy), *Sulaymon* (Solomon), *Dovud* (David) va boshqalar, ya'ni islom dini bilan birga kirib kelgan personajlar haqidagi afsonalar bir-biriga tarixan bog'lanib ketgan. Shuningdek, tadqiqot davomida Hind eposlarida ham Nuh haqidagi afsonalar mavjud ekanligiga guvoh bo'ldik. Demak, "Qisasi Rabg'uziy"ning Odam (a.s.) qissasida "*Innalloha ishtara min al-muminina anfusaxum va amvalaxum bianna lahum al-jannata*"⁶⁰. Ya'ni "Albatta, Olloh taolo mo'minlarda jonlarini va mollarini ularga jannat berib sotib oladi, deydi va bir she'rni keltiradi.

<p><i>Nafsut tuqa al-mushtara</i> <i>Val mushtarin rabbul vara</i> <i>Va jinanuxu asmanuxu</i> <i>Val mustafa dilaluxu</i> <i>Lakin sakkahu Tavratu,</i> <i>Injilu, Zaburu, Firkanuxu</i>⁶¹.</p>	<p>(<i>Ma'nosi: Sotiladigan narsa taqvodorning joni,</i> <i>Uning xaridori insoniyatning parvardigori,</i> <i>Uning bahosi Ollohning jannati,</i> <i>Uning dalili Ollohning muxtor elchisi,</i> <i>Isbotlagan uni Tavrot,</i> <i>Injil-u, Zabur, Qur'oni ham</i>)⁶².</p>
--	--

Mavjud afsonalar ichida eng qadimiysi Babil yoki shumerlar afsonasi III asrning birinchi yarmida bobillik tarixchi Beros tadqiqotlari davomida aniqlagan va yunon tilida yozilgan⁶³. Bu afsonada katta toshqin voqealari haqida keltirib o'tiladi. Bibliyadagi Nuh payg'ambar asrlar o'tib qadimgi Shumerlar dostonida tilga olingan, bunda Nuh payg'ambarning yashagan joyi Shuruppak shahri deb ko'rsatiladi. Jumladan, "Bilgamish" dostonining 11-bitigida 11 ta taxtacha yozilgan bitiklar ham bor va uning juda yaxshi saqlanib qolganligi aytilgan. Taxtachalarda nima bitilganligi ilk bor angliyalik tadqiqotchi Smit tomonidan aniqlangan va o'qilgan. Unda Nuh obrazida Utnapishtim gavdalanadi. Utnapishtim juda ko'p mashaqqatlarni boshdan kechirgan, dunyo to'fonidan omon qolgan kishi obrazida gavdalantirilgan.

Tadqiqot tahlili jarayonida bu hikoyalardagi voqealar o'rtasidagi farqlar ayonlashdi. Ularda Utnapishtimning yuborilishi hech kimda norozilik tug'dirmaydi. "Qisasi Rabg'uziy"da berilgan Nuh (a.s.) ning qavmlari o'rtasidagi munozaralarda esa Nuh (a.s.) noroziliklar va tuhmat toshlari ostida qoladi. Shuningdek, to'fon bo'lishi jarayonida ham farqlar seziladi. Rabg'uziy asarida to'fon qirq kecha-yu qirq kunduz davom etadi deyilsa, Utnapishtim hikoyalarda olti kun-u yetti tun yog'adi

⁵⁹ История русской литературы X–XVII вв.: Учеб. пособие для студентов пед. ин-тов по спец. № 2101 «Рус. яз. и лит.» / Л.А. Дмитриев, Д.С. Лихачев, Я.С. Лурье и др.; Под ред. Д.С. Лихачева. –М.: Просвещение, 1979. С. 15.

⁶⁰ Носируддин, Бурхонуддин. «Қисаси Рабғузий» (Масъул муҳаррир Н.А. Асилова; Сўз боши муаллифи Э.Фозилов. К. I. –Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 22 б.

⁶¹ O'sha manba: –Б. 22.

⁶² O'sha manba: – Б. 185.

⁶³ Джеймс Джордж Фрезер. Фольклор в ветхом завете. 1989. – Б. 70.

degan ma'lumotlarni uchratamiz. Bizningcha, bu topilmalardagi ma'lumotlarning negizi Nuhning muqaddas kitoblardagi obraziga monand. Voqealar badiiy obrazlar, sujetlar va personajlar bilan har millatda turli ko'rinish va lavhalarda namoyon bo'lgan. Utnapishtimning kemasi mum bilan qoplanganligi uchun unga suv kirmaydi. Nuhning kemasi yasalganida uning mum bilan qoplanish holati uchramaydi. Balki Rabg'uziy tomonidan bu joyini yozish unutilgan bo'lishi mumkin. Biz bilamizki, "mum" mustahkam va tabobat ilmida ham keng qo'llanadigan mahsulot hisoblanadi.

"Avesto"dagi qahraton qish afsonasi Shumer mixxatlarida saqlanib qolgan To'fon voqeasini, Musoning "Ibtido" va Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" kitoblaridagi To'fon afsonasini yodga solishini ta'kidlashimiz lozim. Zotan, To'fon afsonasini ilk bor yozma ravishda saqlab qolgan Bibliyaning Eski Ahd va Yangi Ahd kitoblari voqealari bu davrda Markaziy Osiyoning turli hududlariga yoyilgan edi⁶⁴. Shu qatorida "Injil"da ham ko'plab afsonalarda Nuh payg'ambarning farzandi Yofas nomi bilan bog'lab o'rganiladi.

Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk"⁶⁵ kitobida yada (yat-yada) toshlari haqida gapiriladi. Bu toshlar bilan bog'liq afsonalar Nuh payg'ambarga bog'lanadi. Turk olimi Usmon Turon shunday rivoyatni keltiradi: Nuh payg'ambar Turkistonni o'g'li Yofasga berganida, u bu suvsiz o'lkada nima qilishini so'raydi. Ota unga yomg'ir yog'dirish qudratini baxsh etib, ustiga duo (ismi a'zam) yozilgan bir tosh (tilsim) beradi. Ya'ni, ehtiyoj bo'lganda, shu tosh bilan Ollohga duo qilib, yomg'ir yog'diriladi edi. Toshni "yada, toshi" (yada – jada, jodugarlik demakdir – A.A.)⁶⁶ deyishardi. "Turklar aslida yigirma qabiladir. Ular hammasi Nuh payg'ambarning o'g'li Yofas, Yofas o'g'li Turkka borib taqaladilar..."⁶⁷ deydi. Demak, Mahmud Koshg'ariy ham Nuh alayhissalomning tarixiga qiziqqan va o'rgangan. Shu barobarida Turklar Nuhning avlodi ekanligi, Nuhning o'g'li Yofasdan ko'payganligiga ahamiyat qaratgan.

Tavrotning birinchi kitobida Nuh a.s. va suv toshqinidagi voqealar bayon qilinadi. Yettinchi oyning o'n yettinchi kunida kema *Ararat* tog'iga kelib to'xtab qoladi⁶⁸. Suv qaytganini tekshirish uchun quzg'un va kaptarni chiqarib yuboradi. Alloh Nuh to'foni xabarlarini o'sha zamonda yashagan odamlar uchun ibrat, undan keyin yashaganlarga esa qimmatli saboq bo'lsin uchun yetkazgan.

Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" kitobida Muso (a.s.) qissasida Tavrot haqida alohida qissa keltirilgan. Shuni ham qayd etib o'tishimiz lozimki, "Tavrot qonunlar, rivoyatlar, afsonalar va nizomlardan iborat"⁶⁹. Fikrimizcha, bu kitoblardagi rivoyatlar xalq og'zaki ijodi bilan chambarchas bog'langan holda badiiy asar shakliga ko'chganligi muhimdir. Shuningdek, Muso (a.s.) kitobida berilgan qonunlar va nizomlar Rabg'uziyning asarida aytilmagan. Rabg'uziyda ko'proq hikoya, rivoyat, savol-javob kabilarga tayanilgan. Xullas, Nuh to'foniga doir ma'lumotlarni o'rganish, izlanishlari haligacha davom etayotganini inobatga olib,

⁶⁴ Rahmonov N.A. O'zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). –Toshkent: Sano-standart, 2017. –B. 27.

⁶⁵ Koshg'ariy M. Devoni lug'otit-turk. III tomlik. I tom. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2013. –550 b.

⁶⁶ O'sha manba: –550 b.

⁶⁷ Салима Рустамий. «Девону луғати-т-турк»даги лингвистик атамалар. –Тошкент, 2006. –Б. 23.

⁶⁸ Муқаддас китоб. Инжил. Тавротдан Мусо пайғамбарнинг биринчи китоби. Ибтидо. Библияни таржима қилиш институти. –Стокгольм, 1992. –Б. 13.

⁶⁹ В.Б.Никитина ва б. Литература древнего Востока. –Изд. МГУ, 1962. –С. 81–83.

Toshqin rostdan bo‘lganligi yoki Nuh (a.s.) to‘foniga oid ma‘lumotlar faqat afsonalashirilganligi haqida aniq xulosaga kelish qiyinligini aytish joiz. “Toshqin” va “Gilgamish” dostoni o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlar quyidagicha: 1. Suv qaytishini aniqlash uchun kabutar uchiriladi, qo‘nish joyi topilmagach, orqaga qaytadi. (“Gilgamish”ga Utnapishtim tomonidan aytilgan hikoya va Nuh toshqini hikoyasi o‘rtasidagi aloqadorlik); 2. To‘fon haqida ilohiy ogohlantirish ikki asarda ham mavjud bo‘lib, ularga e‘tiqod qilgan insonlar va hayvonlar uchun to‘fon balosidan asrash uchun muhrlangan katta qayiq yasash buyrug‘i mavjudligi; 3. “Ibtido” kitobida ham “Gilgamish” voqealaridagi singari qarg‘a va kabutarlarni uchirish haqidagi fikrlar deyarli yaqin; Ikki tarixiy hikoyada ham kemaning bir tog‘da to‘xtab qolgani haqidagi ma‘lumotlar berilgan; 4. Gilgamish singari “Ibtido” kitobida ham xudolar sharafiga qurbonlik keltirganligi ma‘lumotlari o‘zaro o‘xshaydi.

Ikki asar o‘rtasidagi farqli tafovutlar ham mavjud: 1. Tog‘ning nomlarida farqlar: Juudii tog‘ining o‘rniga Ararat va Nimush tog‘i; 2. Ikkinchi marta qush uchirilishining birida kabutar, birida esa chumchuq uchiriladi; 3. Kema ichida yashash, suvning to‘xtashi jarayoni birida – 40 kun, birida esa yetti kun beriladi; 4. Utnapishtim va uning rafiqasi o‘lmas bo‘lib qoladi. “Ibtido” kitobida esa Nuhning 600 yildan ortiq umr ko‘rganligi aytiladi.

Uchinchi bobning “*Rabg‘uziyning badiiy mahorati*” nomli ikkinchi faslida Nuh qissasining Rabg‘uziy asaridagi badiiy jihati o‘ziga xos, aniqrog‘i asar ichidagi asar ekanligi yoritib berildi. Mazkur qissa ham boshqa qissalar kabi nasr va nazmning mutanosibliги natijasida yuzaga kelgan. Avvalboshidan uning tavsifiga oid maqtoqli qism – na‘t keltirilgan. Na‘t ham ikki qismdan iborat: 1) nasriy na‘t; 2) nazmiy na‘t.

Alohida ta‘kidlash joizki, nasriy na‘t muqaddas kitobdagi oyatlar va hadisi shariflar ishtirokidagi namunalardan iborat. Na‘t tarkibidagi ko‘chirmalarning arab, ularning nutq jarayonidagi ishtiroki bilan bog‘liq izohlarning o‘zbek tilidagi ko‘rinishi adabiyot tarixidagi shir-u shakar hodisasini esga soladi. Ushbu hodisaning arab tilidagi nomi mulamma‘dir. Ushbu hodisaning mohiyati shundan iboratki, matn tarkibi ikki yoki undan ortiq tillardagi namunalar ishtirokida yuzaga keladi. Masalan, Ul: «*Inni lakum nazirun mubinun*» (Men albatta, sizlar uchun ravshan qo‘rqituvchidirman) teb qavmingga pand bergan, «*Fa qultu istag‘firu rabbiko‘m innahu kaana g‘affaran*» (Parvardigorlaringizdan mag‘firat talab qilinglar. U, albatta, gunohlarni kechiruvchidir) teb munojot qilg‘an.

Mazkur shir-u shakar nuh payg‘ambarning vasfi uchun o‘ziga xos maqtoy yorlig‘i bo‘lgan. Axborotning ta‘sirchanligini oshirishda ohangdosh so‘zlar (*bergan* : *qilg‘an* : *bo‘lg‘an* : *olg‘an* : *eshitgan*)ning ishtiroki alohida rol o‘ynagan. Bu ohangdosh so‘zlar xuddi xalq og‘zaki nasrida bo‘lganidek bu yerda saj‘ vazifasini ado etgan. Atoulllo Husayniy ham saj haqida o‘ziga xos ma‘lumot beradi: “Saj‘ arabiyat ahlining bir toifasi nazdida nasrga xosdur va bu toifa sajni nasr fosilalarining oxirgi harfta muvofiqlig‘idin iborat deb bilibturlar. Fosiladin murod ul so‘zdukim, aning tufaylidin kalom qarinalari, ya‘ni bo‘laklari bir-bridin ayrilib turg‘ay”⁷⁰. Demak, Rabg‘uziy so‘zlarning talaffuz jarayonidagi teng bo‘g‘iniligi

⁷⁰ Атоулло Хусайний. Бадойиъ ус-санойиъ (Форсчадан А.Рустамов таржимаси). –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 62.

hamda tovush nuqtayi nazaridan ohangdoshligiga alohida e'tibor bergan. Oqibatda, o'z mulohazalarining, ko'zda tutgan niyatining tinglovchi (o'quvchi)lar uchun xushohang va ta'sirchan bo'lishiga ham erishgan.

Nuh zamoni haqidagi tasavvurlar quyidagi tarzda shakllantiriladi: "*Hikoyat qilurlar. Mashriqdin mag'ribg'a tegi tutush tom din evlar erdi, tom din tom g'a mashriqdin mag'ribg'a tegi yurisa bo'lur erdi. Yer yuzinda oshliq, tarig'u yer qolmadi. Yilqi-qorag'a tufroq yuklab adiz tog'lar boshing'a sochib oshliq teriyur erdilar*"⁷¹. Bu afsona epik makon ("Mashriqdin mag'ribg'a tegi") va zamon (uzoq o'tgan zamon ma'nosini yuzaga keltiruvchi grammatik belgilar)dagi hodisalarning o'ziga xosligi qayd etilmoqda. Matnga "hikoyat" deb nom qo'yilishiga qaramasdan, uning janri ko'proq afsonaga yaqinlashadi. Zero, afsonaning asosiy vazifalaridan biri muayyan narsa, hodisa, urf-odat va boshqalarning kelib chiqishini o'ziga xos tarzda badiiy "isbotlash"dan iboratdir. Bu yerda odamlar sonining ko'payib ketishi hisobidan oziq-ovqat tanqisligini yengish uchun qilingan chora ("Yer yuzinda oshliq, tarig'u yer qolmadi. Yilqi-qorag'a tufroq yuklab adiz tog'lar boshing'a sochib oshliq teriyur erdilar"). Bu janrga xos asosiy belgilardan yana biri tasvirda mubolag'aning keng ishtiroki bilan bog'liq.

"So'zsiz, adabiy asardagi har qanday qahramon personaj bo'la oladi, ammo har qanday personaj "qahramon" sifatida qabul qilina bermaydi. Qahramon degan nom, odatda, badiiy asardagi (Baxtin tavsifiga ko'ra) "asosiy voqealarning tashuvchisi bo'lgan" bosh harakatlanuvchi shaxsga nisbatan aytiladi"⁷².

Shu nuqtayi nazardan qaralsa, qissaning bosh qahramoni Nuh payg'ambardir. Mazkur qahramon turli nuqtayi nazarlardan tasvirlanadi. Mana bir epizod: "Kofirlar Nuhni uru boshladilar. Oncha yanglig' urdilar, so'nguklari sindi..."⁷³.

Mazkur lavhaga Nuh zimmasidagi vazifalarning bajarilishi naqadar qiyin bo'lganini ko'rsatadi. Voqealar rivojida muallif ishtiroki, muallif nutqi ham alohida mavqega ega. "Anchada Nuhg'a xitob keldi: "Duongni ijobat qildim, borg'il chinor yig'ochi tikkil"⁷⁴. Mazkur parcha bevosita muallif nutqiga oid. Unda Nuh payg'ambar faoliyatidagi asosiy nuqtalardan biri – to'fonga tayyorgarlik jarayoni aks etgan. Umumiy jarayonni shunday umumlashtirish mumkin: 1) Dastlabki axborotning kelishi. 2) Nuhning daraxt niholini ekish bilan mashg'ul bo'lishi. 3) Jabroilning o'rdak vositasida ta'lim berishi. 4) Nomusulmonlarning nuh ustidan kulishi. 5) Kemani yasash jarayoni.

Ko'rinadiki, muallif nutqining bu xildagi ko'rinishlari bayon usulining rang-barangligi, axborotlarni berishning yangicha shakl va usullari vositasida kitobxon diqqatini bir nuqtada jamlab turish imkonini beradi.

Rabg'uziyning nazmiy na'ti g'azal shaklida. Unga oddiygina qilib "She'r" nomi berilgan:

*Kun tug'ardin kun botarg'a Nuh yalovoch da'vati,
Ellik o'ksuk ming yil erdi ul risolat muddati*⁷⁵.

⁷¹ O'sha manba.

⁷² Теория литературы: Учеб. пособие для студ. филол. фак. высш. учеб. заведений: В 2 т. / Под ред. Н.Д.Тамарченко. Т. 1: Тамарченко Н.Д., Тюпа В.И., Бройтман С.Н. Теория художественного дискурса. Теоретическая поэтика. –М.: Издательский центр «Академия», 2004. –С. 249.

⁷³ Рабғузий, Носируддин Бурхонуддин. «Қисаси Рабғузий» (Масъул муҳаррир Н.А. Асилова; Сўз боши муаллифи Э. Фозилов). К. I. –Тошкент: Ёзувчи, 1990. –Б. 40.

⁷⁴ O'sha manba: –Б. 41.

⁷⁵ O'sha manba: – Б. 39.

Baytning asosiy mazmuni Nuh payg‘ambar hayotidagi asosiy mohiyatni ko‘rsatish bo‘lgani uchun shunga mos va munosib so‘zlar (Nuh, yalavoch, da‘vat, risolat, muddat) tanlangan. Ular ayni paytning o‘zida tanosib san‘atining yaxshi namunasi bo‘la oladi. “Kun tug‘ardun kun botarg‘a” ifodasi “juda keng va ulkan makon” tushunchasini anglatadi. Shunga qaramay, Nuh qissasi tarkibidagi g‘azalning ayrim o‘ziga xosliklari ham ko‘zga tashlanadi. Xususan: 1) mavzusiga ko‘ra uni na‘t g‘azallari turkumiga kiritish mumkin; 2) hajmiga ko‘ra u nisbatan ko‘proq (14 bayt) baytlarni qamrab olgan; 3) ayni paytda uning voqeabandlik bilan bog‘liqligi ham ko‘zga tashlanadi; 4) g‘azal asosida tarixiy-afsonaviy voqealar yotgani ham e‘tiborga molikdir. Bu jihatlar, qissadagi nasriy qism tafsilotlarisiz tushunilishi qiyin bo‘lar edi. G‘azalning qissa boshlanishidan joy olganiga qaramasdan, uning talqinlari bilan nasriy qismi tahlilidan keyin shug‘ullanish majburiyatiga mana shu adabiy hodisalar sabab bo‘ldi. She‘rning oxirgi ikki qatori to‘fon tugashi bilan bog‘lanadi.

*O‘zi qoldi uch o‘g‘il ham uch kelinlar etagu,
Barcha o‘ldi yub tugandi kufru zulmat bid‘ati.*

Maqtada umumiy natija ham qayd etilgan. To‘fon tugadi. Nuhning o‘zi, uning uch o‘g‘li va kelinlari qoldi, xolos. Boshqalar to‘fon balosidan omon qolmadi. Ayni paytda “kufru zulmat bid‘ati (ham) tugandi.” Qissa bilan to‘la tanishib chiqilganidan keyin ma‘lum bo‘ldiki, mazkur g‘azal qissaning ixcham she‘riy ifodasidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Nuh qissasi Rabg‘uziy asaridagi badiiy jihatdan ancha o‘ziga xos asar ichidagi asardir. Birgina mana shu qissaning o‘zida ham xuddi qatrada quyosh aks etganidek, Rabg‘uziyning adabiy mahorati yuksak darajada namoyon bo‘lgan.

XULOSA

1. Oltin O‘rda davri adabiyotida anbiyolar to‘g‘risidagi qissalarning yaratilishi islom dinining oddiy xalq orasida yoyilishiga katta yordam bergan. Islom tarixi, din ahkomlari va anbiyolar hayotini oddiy odamlar tushunadigan badiiy adabiyot orqali ko‘rsatish o‘zini to‘laqonli oqlagan.

2. Asardagi payg‘ambarlar hayoti bilan bog‘liq voqealar mohirona badiiylashtirilganligi hamda insonlar tushunadigan xalqona uslubda yozilganligi bois tez ommalashgan. Qissalarning sodda va ravon tilda yozilishi, rang-barang sujetga egaligi asar qimmatini oshirgan.

3. “Qisasi Rabg‘uziy”da g‘oyat yuksak badiiyat namunalari bo‘lgan she‘riy parchalarni ko‘plab uchratish mumkin. Ijodkor ulardan payg‘ambarlarni tavsiflashda, asarning estetik ta‘sirchanligini oshirishda, shuningdek, qissalardagi voqealarga o‘zining hissiy munosabatini ifodalashda unumli foydalangan.

4. “Qisasi Rabg‘uziy”da insonlarga o‘rnak bo‘luvchi, ularni komillikka chorlovchi qissalar juda ko‘p. Asar turkiy xalqlarning hamda insoniyatning ma‘naviy va madaniy merosi sifatida, badiiy prozaning ilk namunasi sifatida, XIII asrgacha bo‘lgan turkiy xalqlar adabiy tilini o‘rganishda muhim manba sifatida qadrlidir.

5. Turkiy xalqlar adabiyotining janrlar ko‘lami, salmoqdorligi, g‘oyaviy-badiiy qimmatini belgilash, ko‘p jihatdan uning adabiy manbalarini o‘rganishga bog‘liqdir. “Qisasi Rabg‘uziy”dagi adabiyotshunoslikka oid qarashlar, adabiy parchalar o‘sha davr turkiy adabiyotda o‘nga yaqin janr mavjud bo‘lganligini dalolatlaydi. “Qisasi Rabg‘uziy” asari tarkibida kelgan bir qator kichik nasriy janrlar asardagi qissa va hikoyatlar mazmunini ochishga, ularni to‘ldirishga xizmat qilgan.

6. Rivoyat, naql, hikoyat va hikmatlar o‘z takomili davomida tarixiylik tamoyiliga, bayon usuliga hamda didaktik xususiyatiga ega janrlar sifatida xarakterlanadi. Ushbu belgilar ularning janr sifatidagi o‘rnini belgilab beradi. Nuh qissasidagi janrlar shundan dalolat beradi.

7. Badiiy adabiyotda Nuh (a.s.) o‘zining obraz sifatida badiiy qiyofasini gavdalandirdi. Lirik asarlarda qahramonning umri Nuh umriga qiyoslanishi ham ahamiyatlidir. Shuningdek, o‘zbek mumtoz lirikasida Nuh (a.s.) obrazi o‘zining mifologik, tarixiy hayot yo‘lini bosib o‘tgan, muayyan qiyofaga ega bo‘lgan obraz sifatida shakllantirilgan. She‘rlarda Nuh obrazi va u bilan bog‘liq to‘fon voqeasi talmeh sifatida esga olinsa, ba‘zi o‘rinlarda Nuh umri – uzoq umr ko‘rish timsoli sifatida madh etiladi. Bu she‘riyatdagi umr ta‘rifi bilan aloqador ko‘tarinki pafosni ta‘minlagan.

8. Mumtoz lirikada Nuh (a.s.) obraziga tasavvufiy timsol, nurga badiiy detal sifatida murojaat etilgan. Bu obraz lirikaning diniy-ma‘rifiy, badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilgan. Bir qancha nomdagi talmehlarni hosil qilish uchun manba vazifasini o‘tagan.

9. “Qisasi Rabg‘uziy”dagi Nuh (a.s.) qissasi ilohiy kitoblar, jumladan, “Tavrot”, “Injil” va “Qur‘oni karim” kabi muqaddas kitoblardagi to‘fon afsonalari bilan bog‘liq syujetlar bilan o‘xshash va farqli jihatlar asnosida tekshirildi. Shuningdek, “Mahabharata”, “Bilgamish” eposlari, “Tarixi arba ulus”, “Shajarayi tarokima” kabi tarixiy asarlarda Nuh (a.s.)ga murojaat etgan holda to‘fon voqeasi tadrijiy o‘rganildi va Nuh qissasi mukammal qissa ekanligi xususida xulosaga kelindi.

10. Rabg‘uziy ijodiga oid ma‘lumotlar adib va uning me‘rosi haqida to‘liq taassurot uyg‘otmaydi. Adib qissalari o‘qilishiga talab ko‘p bo‘lganligi turli hattotlar tomonidan turlicha ko‘chirilgan nusxalar va ulardagi o‘zgartirishlar asardagi to‘g‘ri ma‘lumotlarga putur yetkazgan, qiymatini tushurgan. Shu sababli asar mazmuni, mohiyati syujet va kompozitsiyasi, ayniqsa, tili va yozilishiga doir ayrim chalkashliklar yuzaga kelganki, ushbu sohada hali ko‘plab ilmiy ishlar qilinmog‘i lozimligini ko‘rsatadi.

11. Rabg‘uziyning poetik mahorati juda yuqori bo‘lgan. Bu mahorat, ayniqsa, asarning kompozitsiyasi va syujetida, voqealar o‘rtasidagi mantiqiy izchillik va uzluksizlikda, tafsilotlar tasviridagi aniqlik va lo‘ndalikda ochiq namoyon bo‘lgan.

12. Adib nasr va nazm imkoniyatlarini to‘la his qilgan. Ushbu imkoniyatlardan juda o‘rinli foydalangan. Buning oqibatida ona tili uchun bebaho yozma yodgorlik yarata olgan. Adibning mahorati kelgusida yanada batafsil va jiddiy o‘rganilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD. 03/27.02.2020.Fil.91.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ГУЛИСТАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

МАМАТОВА САДБАРА КУЛДОШЕВНА

**ОБРАЗ НУХ АЛЕЙХИССАЛАМА
В УЗБЕКСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ**

10.00.02 – Узбекская литература

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.3.PhD/Fil4978.

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх (узбекском, русском, английском (резюме)) языках размещён на веб-странице Научного совета Гулистанского государственного университета (www.guldu.uz) и на информационно-образовательном портале "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Рахмонов Насимхон Аскарлович**
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Тухлиев Бокижон**
доктор филологических наук, профессор

Хамрокулова Хуршида Кувватовна
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация: **Государственный музей литературы имени Алишера Навои**

Защита диссертации состоится «27» 03 2025 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 Гулистанского государственного университета (Адрес: 120100, город Гулистан, 4-микрорайон. Тел.: (99 867) 225-40-42; факс: (99 867) 225-02-75; E-mail: glsu_info@edu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Гулистанского государственного университета (зарегистрирована за №56/25). (Адрес: 120100, город Гулистан, 4-микрорайон. Тел.: (99 867) 225-40-42)

Автореферат диссертации разослан «10» 03 2025 года.
(Реестр протокола рассылки № 28 от «10» 03 2025 года).



М.Р. Маматкулов,
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
филологических наук, профессор

А.А. Ахоров,
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философии по филологическим
наукам (PhD), доцент

Ф.Г. Шарипов,
Председатель Научного семинара
Научного совета по присуждению
ученых степеней, доктор
филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом литературоведении на основе редких рукописей важно изучать определенный период литературного процесса и культурно-исторического развития. Одним из видов таких редких источников являются агиографические произведения, занимающие особое место в содержательном обогащении узбекской классической литературы. Изучение агиографических произведений в литературоведении привело к важным результатам. Эти произведения не только представляют собой систему источников, показывающую эволюцию и особенности поэтического мышления нашего народа, но и привлекают внимание как один из литературных памятников, сыгравших важную роль в духовно-нравственном развитии человечества.

В мировом литературоведении при изучении агиографических произведений, в том числе «Кисаси Рабгузи» («Повести Рабгузи») и литературного наследия его автора Насириддина Бурхануддина Рабгузи, проводится множество научных исследований по изучению образа Нуха алейхиссалама в литературе народов Востока. В этих исследованиях произведение «Кисаси Рабгузи», занимающее особое место среди шедевров и бесценных литературных памятников, созданных нашими древними предками, творческий гений которых уникален, оказался важным источником, отражающим лучшие традиции, связанные с выражением веры о людях, живущих во славу добра, и является произведением, прославляющим добро людей. Основано это было на том, что произведение отражает начало появления земли до событий из жизни последнего пророка Мухаммада (*мир ему и благословение Аллаха*) и, по сути, служит призыву людей к правильности, совершенству и нравственной чистоте.

В нашей стране ведется большая работа по изучению и пропаганде узбекской классической литературы, в частности, по исследованию агиографических произведений, таких как «Кисаси Рабгузи», и пропаганде значения этих литературных памятников. В связи с этим в новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы подчеркнуто «Перевод образцов узбекской национальной классической и современной литературы на мировые языки в высоком качестве...»¹, «Узбекская классическая и современная литература на международном уровне» «что очень важно изучить, проанализировать важнейшие процессы, происходящие сегодня в мировом литературном пространстве, сделать необходимые научные и практические выводы и определить наши будущие задачи»² и определены важные задачи в этом плане. Для реализации данных задач, в частности, изучить историко-генетическую основу образа Нуха алейхиссалама в агиографических произведениях, являющихся образцами узбекской классической литературы,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

² Mirziyoyev Sh. Adabiyot, san‘at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning „O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari“ mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va-2018.07.08>.

особенности этого образа, роль образа в общей композиционной структуре, и подобные вопросы, возникает необходимость в дальнейшем анализе и исследовании.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, намеченных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан: Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-2789 от 17 февраля 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управлению и финансированию научно-исследовательской деятельности», Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-2995 от 24 мая 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы хранения, исследования и пропаганды древних письменных источников», Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-4865 от 19 октября 2020 года «О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои», Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-20 от 25 января 2023 г. «О широком праздновании 540-летия великого поэта и ученого, выдающегося государственного деятеля Захириддина Мухаммада Бабура», Распоряжение Кабинета Министров Республики Узбекистан от 16 февраля 2018 года № 124-Р «О проведении международной конференции «Актуальные вопросы изучения и популяризации за рубежом узбекской классической и современной литературы», а также в других нормативно-правовых документах Республики Узбекистан, касающихся данной сферы деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики: I. «Пути формирования системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Поскольку «Кисаси Рабгузи» или «Кисас- ул-анбийё» Рабгузи является литературным источником, созданным по истории пророков, были осуществлены различные исследования относительно интереса к этому произведению. В частности, русский учёный Н.И. Ильминский³ полностью опубликовал это произведение. По изучению этого произведения было проведено несколько исследований. Айсу Ата⁴, исследовавшая «Кисаси Рабгузи» по факсимильной копии Гронбека, изучила способы написания произведения, его содержание, рассмотрела структуру стихотворений, историю изучения и фонетику. Турецкий вариант этого произведения было опубликовано Гронбеком вместе с факсимильным экземпляром. Также в ходе своих исследований ученый широко обращался к

